

JISMONIY TARBIYA DARSALARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Aliyeva Marg‘uba Najimovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani MMTB ga qarashli 67- maktab Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada jismoniy tarbiya darslarida yangi pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya darslarining afzallikkleri xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya, axloq, jismoniy tarbiya, ushub, metodika, ta‘lim oluvchi, sportchi.*

Bugungi kunda turli xil sog‘liq muammolaridan aziyat chekayotgan maktab o‘quvchilari soni sezilarli darajada oshdi. Ko‘pgina bolalar jismoniy va aqliy rivojlanishda orqada qoladilar, ko‘pincha yuqumli va virusli kasalliklar bilan kasallananadilar va hokazo. Ular tez-tez kasal bo‘lib qolishadi - ular o‘z vaqtida bilim olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bolalar salomatligini oldini olish va mustahkamlash usullaridan biri bu maktab o‘quvchilari uchun nafas olish mashqlaridir. Nafas olish gimnastikasi - bu tanani yaxshilashga qaratilgan mashqlar tizimi. Bolalar, ayniqsa, kichiklar uchun bu asosda oddiy (va ba‘zan juda qiziqarli) mashqlardan iborat maxsus komplekslar yaratilgan. Maktab o‘quvchilari bilan nafas olish mashqlarini o‘tkazishdan maqsad, eng avvalo, ularning salomatligini mustahkamlashdir.

Ta‘lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o‘quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o‘quvchining o‘z xatti-harakatini o‘zi nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi, o‘quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Sport-imkoniyat. Sport mamlakatni dunyoga tanitishning eng samarali usuli. Sportgo‘zallik, halollik, salomatlik komposi. Yurtimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlarning eng ko‘pi ham sportga bag‘ishlangan. Eng yuqori natijalar ham fan olimpiadalaridan oldin sport musobaqalariga berilishini inobatga olgan holda fanni yoshlari o‘rtasida ommalashtirish, sportchi championlarni yetkazishda biz pedagoglarning ham oldimizda ulkann vazifa turadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o‘quvchilarni mustaqil fikrashga o‘rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Boshqa fanlarga nisbatan jismoniy tarbiya darslarida o‘quv metodlar tubdan farq qiladi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘qituvchining asosiy faoliyati so‘z bilan amalga oshiriladi: so‘z yordamida bilimlar beriladi, tushunishni faollashtiradi va chuqurlashtiriladi, vazifalar beriladi, ularning bajarilishi boshqariladi, natijalar taxlil qilinadi va baholanadi, bolalarni intizomi

boshqariladi. So‘z shug‘ullanuvchilar faoliyatini tushunishda, baholashda va o‘zicha boshqarishda kerakli vazifani hal etadi. Shu bilan bir qatorda so‘z o‘zining qo‘llanilishiga ko‘ra u yoki bu dediktiv hikoya, suhbat,muhokama va va hokozolardan iborat.

Interfaol metod - ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida, bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishni ta’minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi. Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o‘rganish faolligini oshirishga erisha oladi. Buning uchun o‘quvchilarning interfaol o‘quv mashg‘ulotga tayyorlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirib olishlari, xamda o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o‘qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o‘tkaza bilishlari, ijodiy, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur. Ta’lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o‘quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollandashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o‘quvchining o‘z xattiharakatini o‘zi nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirop etishi , o‘quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya va sportning nazariy, amaliy darslarida, interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi:

- 1.O‘quvchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;
- 2.O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni nazorat qilishning qulayligi
- 3.O‘quvchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi
4. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi ,

Shunday qilib, jismoniy tarbiya o‘qituvchisini yangi talablar sharoitida o‘quv jarayonini loyihalash nafaqat ta’lim natijalarini rejalashtirishga, balki ta’lim mazmuni, usullari, shakllari va texnologiyalarini tanlashga boshqa yondashuvlarni ham nazarda tutadi. Jismoniy tarbiyada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, eng avvalo, jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni oshirish maqsadida pedagogik jarayonga ijodiy yondashishdir. Bu salomatlikni saqlash uchun o‘quv jarayoni darajasini oshirish vazifasi bilan bog‘liq holda biz intilayotgan asosiy maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1997 yil.
- 2.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITAPRESS», 2022. 269 bet.
4. Goncharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish” o‘quv qo‘llanma T.: O‘zDJTI nashriyoti 2005 y
5. Минникова Н. В. Трофимова Я. А. Оценка эффективности использования дыхательной гимнастики по А. Н. Стрельниковой со старшими дошкольниками. Наука-2020 г